2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK: 37.013.42:94(575.1)

Rustamov Ramziddin Abdullayevich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

UMUMTA'LIM MAKTABLARI 9-SINF "TARBIYA" DARSLARIDA JADID MUTAFAKKIRLARI MEROSI ASOSIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim maktablarining 9-sinf "Tarbiya" fanida Jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning axloqiy-falsafiy merosi asosida o'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini (soft skills) shakllantirish metodikasi tadqiq etilgan. Tadqiqot maqsadi – milliy pedagogik merosni zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unlashtirgan integratsiyalashgan dars modelini ishlab chiqish bo'lib, unda tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, hamkorlik, liderlik, empatiya va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari rivojlantiriladi. O'quvchilarning o'smirlik davri xususiyatlari hisobga olingan holda, Avloniy merosi real hayotiy vaziyatlar (keyslar), loyihaviy faoliyat va interaktiv muhokamalar bilan bog'langan. Avloniyning "fikr tarbiyasi", "intizom", "muomalat" va "axloq" tushunchalari zamonaviy "critical thinking", "communication skills", "media literacy" va "emotional intelligence" kompetensiyalari bilan sintez qilinib, o'quvchilarning ijtimoiy faolligi oshirilgan. Yondashuv "Yangi O'zbekiston" strategiyasining ta'limni yangilash, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash tamoyillariga mos keladi.

Kalit so'zlar: tarbiya fani, jadidlar merosi, soft skills, ijtimoiy kompetentlik, Abdulla Avloniy, fikr tarbiyasi, tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, milliy tarbiya, integratsiyalashgan dars modeli, loyihaviy o'qitish (PBL), media literacy, axloqiy tarbiya.

МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ МЫСЛИТЕЛЕЙ ДЖАДИДОВ В УРОКАХ «ОБРАЗОВАНИЯ» 9 КЛАССА СРЕДНИХ ШКОЛ

Аннотация. В статье рассматривается методология формирования у учащихся социальной компетентности (мягких навыков) на основе морального и философского наследия Джадидского Просвещения Абдуллы Авлония по предмету «Воспитание» 9-го класса средних школ. Цель исследования — разработать интегрированную модель урока, объединяющую национальное педагогическое наследие с современными образовательными требованиями, где развиваются критическое мышление,

коммуникация, сотрудничество, лидерство, эмпатия и навыки социальной адаптации. Учитывая особенности подросткового возраста студентов, наследие Авлония связано с реальными жизненными ситуациями (кейс-стади), проектной деятельностью и интерактивными дискуссиями. Понятия Авлония «воспитание мысли», «дисциплина», «лечение» и «мораль» были синтезированы с современными компетенциями, такими как критическое мышление, коммуникативные навыки, медиаграмотность и эмоциональный интеллект, что повышало социальную активность студентов. Подход соответствует принципам обновления образования и образования на основе национальных ценностей стратегии «Новый Узбекистан».

Ключевые слова: педагогическая наука, наследие джадидов, мягкие навыки, социальная компетентность, Абдулла Авлоний, образование мышления, критическое мышление, коммуникативная компетентность, национальное образование, интегрированная модель урока, проектное обучение (PBL), медиаграмотность, этическое образование.

METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF SOCIAL COMPETENCE OF STUDENTS ON THE BASIS OF THE LEGACY OF JADID THINKERS IN THE 9TH GRADE "EDUCATION" LESSONS OF SECONDARY SCHOOLS

Abstract. The article examines the methodology for the formation of students' social competence (soft skills) on the basis of the moral and philosophical heritage of the Jadid Enlightenment Abdulla Avloniy in the subject "Upbringing" of the 9th grade of secondary schools. The aim of the study is to develop an integrated lesson model that combines the national pedagogical heritage with modern educational requirements, where critical thinking, communication, cooperation, leadership, empathy and social adaptation skills are developed. Taking into account the characteristics of students' adolescence, the Avloniy's heritage is linked to real-life situations (case studies), project activities and interactive discussions. Avloniy's concepts of "education of thought", "discipline", "treatment" and "morality" were synthesized with modern competencies such as critical thinking, communication skills, media literacy and emotional intelligence, increasing the social activity of students. The approach is consistent with the principles of renewal of education and education on the basis of national values of the strategy "New Uzbekistan".

Keywords: 13.00.02, Educational science, Jadidlar heritage, soft skills, social competence, Abdulla Avloniy, thought education, critical thinking, communicative competence, national education, integrated lesson model, project-based learning (PBL), media literacy, ethical education.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'limning mazmuni va unga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy ta'limda asosiy e'tibor o'quvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarni berishga qaratilgan bo'lsa, XXI asr ta'lim paradigmasida shaxsning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, samarali muloqot, hamkorlik, emotsional barqarorlik, liderlik va o'z-o'zini boshqarish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Zamonaviy ta'lim natijasi endilikda faqat o'zlashtirilgan bilim hajmi bilan emas, balki o'quvchining ushbu bilimlardan real hayotiy vaziyatlarda qay darajada samarali foydalana olishi bilan ham belgilanmoqda.

Xalqaro ta'lim tadqiqotlarida ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, OECD tomonidan XXI asr ko'nikmalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'quvchilarning bilimni qo'llash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish kompetensiyalari zamonaviy ta'limning muhim natijalari sifatida ko'rsatiladi [6]. UNESCO tomonidan ilgari surilgan ta'limning insonparvarlik va ijtimoiy yo'naltirilgan modeli ham ta'limni faqat akademik bilim berish vositasi sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy, axloqiy va fuqarolik sifatlarini rivojlantiruvchi jarayon sifatida talqin etadi [7].

Mazkur global tendensiyalar O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan hamohangdir. "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanadi [1]. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Tarbiya" fanining mazmunini zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, uni o'quvchilarning real hayotiy ehtiyojlari bilan bog'lash muhim pedagogik vazifadir.

Ayniqsa, 9-sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar alohida metodik yondashuvni talab qiladi. Mazkur davrda o'quvchining o'z-o'zini anglash jarayoni kuchayadi, tengdoshlar bilan munosabatlar, shaxsiy pozitsiyani shakllantirish, ijtimoiy me'yorlarni anglash va mustaqil qaror qabul qilishga ehtiyoj ortadi. Shu bilan birga, raqamli muhitning kengayishi kiberbulling, dezinformatsiya, manipulyativ axborot, shaxsiy chegaralarning buzilishi kabi yangi ijtimoiy-psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun o'quvchilarga faqat axloqiy qoidalarni tushuntirish emas, balki ushbu qoidalarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish zarur.

Bunday vazifalarni hal etishda milliy pedagogik merosdan foydalanish muhim metodologik imkoniyat yaratadi. XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan Jadidchilik harakati nafaqat milliy uyg'onish, balki ta'lim va tarbiya mazmunini yangilash jarayonida ham muhim o'rin tutadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqa ma'rifatparvarlar yangi usul maktablari orqali yoshlarni ilmli, mustaqil

fikrlaydigan, axloqiy jihatdan yetuk va jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglaydigan shaxslar sifatida tarbiyalashga intilganlar [4; 5].

Jadid pedagogik merosining alohida ahamiyatli jihati shundaki, unda ta'lim va tarbiya bir-biridan ajratilmaydi. Bilim insonning axloqiy kamoloti, fikrlash madaniyati, intizomi va jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan uyg'un holda qaraladi. Bu jihat zamonaviy "soft skills" konsepsiyasining mazmuni bilan muayyan darajada mushtaraklik kasb etadi.

Mazkur nuqtayi nazardan Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida fikr tarbiyasi, axloq, intizom, muomala madaniyati, shaxsiy namuna, vatanparvarlik va insoniy fazilatlar masalalari keng yoritilgan [2]. Avloniyning tarbiya haqidagi qarashlari zamonaviy tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, o'z-o'zini boshqarish va ijtimoiy mas'uliyat kabi ko'nikmalarni shakllantirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy maqsadi Abdulla Avloniy pedagogik merosini zamonaviy "soft skills" konsepsiyasi bilan integratsiyalash asosida 9-sinf o'quvchilarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Milliy pedagogik tafakkur tarixini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda Jadidchilik harakatining ta'lim-tarbiya rivojiga qo'shgan hissasi alohida ta'kidlanadi. U. Dolimov Jadidchilik va jadidlar pedagogikasini tahlil qilib, yangi usul maktablarining asosiy maqsadi yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish va milliy ongini shakllantirishdan iborat bo'lganini qayd etadi [4]. B. To'raevning pedagogika tarixi bo'yicha tadqiqotlarida ham jadid pedagogikasining ta'lim mazmunini yangilash, o'quvchi faolligini oshirish va tarbiyani hayot bilan bog'lashdagi ahamiyati ko'rsatilgan [5].

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari milliy tarbiya nazariyasining muhim manbalaridan biridir. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida tarbiya inson hayotining eng muhim omillaridan biri sifatida talqin qilinadi. Asarda axloq, fikr, intizom, muomala, vatanparvarlik, ilm-ma'rifat va shaxsiy mas'uliyat masalalari o'zaro bog'liq holda yoritilgan [2]. Avloniy merosining zamonaviy pedagogik jarayondagi imkoniyatlari M.A. Saidova tomonidan ham tadqiq etilib, mutafakkirning pedagogik qarashlari yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun muhim nazariy asos ekanligi ta'kidlangan [9].

Milliy tarbiya masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham shaxsning ijtimoiylashuvi, milliy qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglash jarayonlariga katta ahamiyat beriladi. M. Quronov milliy tarbiyani shaxsning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanishini ta'minlovchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida ko'radi [3]. Mazkur yondashuv Avloniy merosini

zamonaviy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish uchun muhim nazariy zamin yaratadi.

So‘nggi yillarda jadid pedagogik merosini faol ta’lim texnologiyalari bilan bog‘lashga qaratilgan tadqiqotlar ham paydo bo‘lmoqda. O.A. Bobonazarov jadid maktablari tajribasini o‘quvchi faolligini oshiruvchi zamonaviy metodlar bilan integrativ qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatadi [10]. G.B. Saidnazarovaning “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan ishlarida esa tarbiyaviy jarayonda interfaol metodlar, o‘quvchi faolligi va amaliy topshiriqlarning ahamiyati asoslanadi [11]. M.M. Ruziyevaning tadqiqotlarida ham Turkistondagi jadidchilik harakati doirasida yangi usul ta’limining kasbiy va amaliy yo‘nalishlari tahlil qilingan [12].

Xorijiy tadqiqotlarda esa XXI asr kompetensiyalari, ijtimoiy-emotsional ta’lim va “soft skills” masalalari keng o‘rganilgan. OECD materiallarida zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning bilimni yangi vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni mustaqil hal etish, hamkorlik qilish va samarali muloqotga kirishish qobiliyatlarini rivojlantirish ekanligi ko‘rsatiladi [6]. UNESCO tadqiqotlarida ta’limning shaxsiy rivojlanish bilan bir qatorda ijtimoiy birdamlik, mas’uliyat va umumiy farovonlikka xizmat qilishi zarurligi ta’kidlanadi [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir tomondan, Abdulla Avloniyning pedagogik merosi milliy tarbiya va axloqiy kamolot nuqtayi nazaridan yetarlicha o‘rganilgan; ikkinchi tomondan esa, mazkur merosning zamonaviy “soft skills” va ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari tizimli metodik model sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, 9-sinf “Tarbiya” darslari doirasida Avloniy g‘oyalarini keys-stadi, debat, rolli o‘yin va loyihaviy ta’lim bilan birlashtirish masalasi alohida metodik izlanishni talab etadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot 13.00.02 – “Tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi doirasida amalga oshirilib, unda aksiologik, pedagogik-interpretativ, kompetensiyaviy va loyihaviy yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashtirildi.

Aksiologik yondashuv asosida Abdulla Avloniy asarlarida ifodalangan axloq, adolat, insonparvarlik, intizom, vatanparvarlik, milliy g‘urur, shaxsiy mas’uliyat va insoniy munosabatlar kabi qadriyatlarning zamonaviy ta’lim jarayonidagi tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilindi. Mazkur yondashuv milliy pedagogik merosni faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki bugungi o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik resurs sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi.

Pedagogik interpretatsiya yordamida Avloniyning “fikr tarbiyasi”, “muomalat”, “intizom”, “axloq” va “shaxsiy namuna” kabi tushunchalari zamonaviy pedagogikadagi tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, media savodxonlik, emotsional intellekt, o‘z-o‘zini boshqarish va ijtimoiy mas’uliyat tushunchalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bunda tarixiy-pedagogik g‘oyalarni

zamonaviy terminologiyaga mexanik tarzda tenglashtirish emas, balki ular o‘rtasidagi mazmuniy va funksional yaqinlikni aniqlashga asosiy e’tibor qaratildi.

Tadqiqotning amaliy qismida loyihaviy o‘qitish (Project-Based Learning) metodidan foydalanildi. 9-sinf “Tarbiya” fanining jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, axloq va mas’uliyat, jamoada yashash kabi mavzulari asosida o‘quvchilarning real hayotiy muammolarni tahlil qilishiga yo‘naltirilgan keyslar ishlab chiqildi. Jumladan, “Kiberbulling va axloqiy javobgarlik”, “Nizolarni hal qilishda muomalat qoidalari”, “Vaqtni boshqarish va intizom”, “Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy namuna” mavzularidagi keyslar qo‘llanildi.

Shuningdek, “Jadidlar debati”, “Virtual Jadid maktabi” va “Mening ijtimoiy loyiham” kabi loyihalar tashkil etildi. Ushbu faoliyatlarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni izlash va tahlil qilish, guruhda ishlash, vazifalarni taqsimlash, taqdimot qilish, o‘z fikrini asoslash va refleksiya yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratildi.

Tajriba-sinov ishlari 2024–2025 o‘quv yilida Surxondaryo viloyatidagi ikkita umumta’lim maktabida jami 87 nafar 9-sinf o‘quvchisi ishtirokida tashkil etildi. Eksperimental guruhni 58 nafar o‘quvchi, nazorat guruhini esa 29 nafar o‘quvchi tashkil etdi. Eksperimental guruhda integratsiyalashgan model asosida 12 ta dars o‘tkazilgan bo‘lsa, nazorat guruhida an’anaviy darslik asosidagi mashg‘ulotlar davom ettirildi.

Tadqiqotda ijtimoiy kompetentlikni aniqlashga yo‘naltirilgan modifikatsiyalangan so‘rovnoma, tanqidiy fikrlashni baholash uchun Watson–Glaser Critical Thinking Appraisal testining qisqartirilgan varianti, kommunikativ ko‘nikmalarni aniqlash uchun kuzatuv va rubrikalar, loyiha natijalarini baholash mezonlari, o‘z-o‘zini baholash hamda refleksiv kundaliklardan foydalanildi. So‘rovnomaning ichki izchilligi Cronbach alfa koeffitsiyenti orqali tekshirilib, $\alpha=0,84$ natija olindi.

Olingan miqdoriy ma’lumotlar statistik qayta ishlanib, guruhlar o‘rtasidagi farqlar t-test va korrelyatsion tahlil yordamida tekshirildi. Tajriba boshlanishidan oldin eksperimental va nazorat guruhlarining dastlabki ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan muhim farq aniqlanmadi ($p>0,05$). Sifat ma’lumotlarini yig‘ishda pedagogik kuzatuv, intervyu va fokus-guruh suhbatlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba-sinov natijalari asosida “Meros va zamonaviylik” deb nomlangan uch bosqichli integratsiyalashgan metodik model ishlab chiqildi. Model nazariy, amaliy va loyihaviy bloklardan tashkil topdi.

Nazariy blokda Abdulla Avloniy asarlaridan tanlangan parchalar o‘rganilib, ularning mazmuni zamonaviy ijtimoiy muammolar bilan bog‘landi. Masalan, “fikr tarbiyasi” konsepti asosida axborotni tanqidiy baholash, feyk yangiliklarni aniqlash va manipulyativ kontentga nisbatan ongli munosabat shakllantirish masalalari muhokama qilindi.

Amaliy blokda keys-stadilar, rolli o‘yinlar, debatlar va refleksiv mashg‘ulotlardan foydalanildi. O‘quvchilar real yoki modellashtirilgan vaziyatlarni

tahlil qilib, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashish, qaror qabul qilish va o‘z tanlovini asoslash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Loyihaviy blokda o‘quvchilar kichik guruhlarda mustaqil faoliyat olib bordilar. “Virtual Jadid maktabi” loyihasida ular ssenariy tayyorlash, ma’lumot to‘plash, videomaterial yaratish, vazifalarni taqsimlash va yakuniy mahsulotni taqdim etish jarayonlarida ishtirok etdilar. “Jadidlar debati”da esa tarixiy shaxslarning qarashlarini zamonaviy muammolar bilan bog‘lab, dalillangan fikr bildirishga harakat qildilar.

Kognitiv rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha eksperimental guruhda o‘quvchilarning 75 foizi Avloniy qarashlarini zamonaviy hayotiy muammolarga tatbiq eta olgan bo‘lsa, nazorat guruhida mazkur ko‘rsatkich 48 foizni tashkil etdi. Ushbu farq statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, $t=4,52$ va $p<0,001$ natijani ko‘rsatdi.

Tanqidiy fikrlash testi natijalarida ham ijobiy dinamika kuzatildi. Eksperimental guruhda o‘rtacha ko‘rsatkich 17,4 balldan 22,1 ballgacha oshgan bo‘lsa, nazorat guruhida 17,1 balldan 18,3 ballgacha ko‘tarildi. Bu holat integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning o‘quvchilarda bilimni yangi vaziyatlarda qo‘llash va muammoga tahliliy yondashish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Kommunikativ va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuv va rubrik baholashlar ham eksperimental guruhda sezilarli ijobiy o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning o‘z fikrini dalillash, faol tinglash va empatiya ko‘rsatish ko‘nikmalari o‘rtacha 24 foizga yaxshilandi. O‘quvchilarning 82 foizi darslar davomida boshqalarning fikri va his-tuyg‘ularini yaxshiroq tushunishni o‘rganganini, 76 foizi esa nizoli vaziyatlarda o‘zini boshqarishga harakat qilayotganini bildirgan.

Pedagogik kuzatuv natijalarida eksperimental sinflarda darsdan tashqari vaqtda kuzatiladigan nizoli vaziyatlarning kamayishi va o‘zaro hamkorlik muhitining yaxshilanishi qayd etildi. Mazkur natija “muomalat” konseptini amaliy vaziyatlar orqali o‘rgatishning kommunikativ va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Loyihaviy faoliyat natijalarida ham sezilarli farq kuzatildi. “Virtual Jadid maktabi” loyihasida qatnashgan eksperimental guruh o‘quvchilarining 82 foizi o‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni real hayotda qo‘llash imkoniyatiga ega ekanini bildirgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 41 foizni tashkil etdi. Eksperimental guruh o‘quvchilarining 68 foizi esa darslardan so‘ng shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishga qiziqish bildirgan.

Natijalar muhokamasi. Tadqiqot natijalari Abdulla Avloniy pedagogik merosining zamonaviy ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida samarali metodik resurs bo‘la olishini ko‘rsatdi. Bunda, avvalo, Avloniyning “fikr tarbiyasi” konsepti bilan zamonaviy tanqidiy fikrlash va media savodxonlik o‘rtasidagi mazmuniy yaqinlik e’tiborga loyiqdir. Avloniy fikrni jaholat, xurofot va noto‘g‘ri

qarashlardan asrash zarurligini ilgari surgan bo‘lsa, bugungi raqamli muhitda o‘quvchi turli xil feyk yangiliklar, manipulyativ xabarlar va ishonchsiz axborot manbalari bilan to‘qnash kelmoqda [2]. Demak, tarixiy pedagogik merosdan foydalanish o‘quvchiga zamonaviy axborot muhitida ongli va mas’uliyatli pozitsiyani egallashga yordam berishi mumkin.

Avloniyning “muomalat” haqidagi qarashlari ham zamonaviy kommunikativ kompetensiya va emotsional intellekt tushunchalari bilan mazmunan yaqinlashadi. Muloqot jarayonida boshqalarning fikrini hurmat qilish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, muloyimlik va sabr-toqatni namoyon etish kabi fazilatlar o‘quvchining ijtimoiy munosabatlarini konstruktiv tashkil etishiga xizmat qiladi. Bu jihatlar milliy tarbiya masalasida ilgari surilgan qadriyatlar bilan ham uyg‘unlashadi [3].

Tadqiqot natijalarini zamonaviy xorijiy modellar bilan qiyoslash ham muhim. Ijtimoiy-emotsional ta’lim konsepsiyalarida o‘z-o‘zini anglash, emotsiyalarni boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalar asosiy o‘rin tutadi. Biroq milliy pedagogik merosga asoslangan yondashuv mazkur universal kompetensiyalarni milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy identiklik bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Shu ma’noda Avloniy modeli xorijiy tajribani inkor etmaydi, aksincha, uni milliy pedagogik mazmun bilan boyitadi.

Tajriba jarayonida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga munosabatida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Eksperimental guruhda o‘z xalqining tarixi va qadriyatlarini hurmat qilishga oid ijobiy munosabat 27 foizga oshgani qayd etildi. Bu natijani jadidlar faoliyatini faqat tarixiy faktlar majmui sifatida emas, balki bugungi o‘quvchining shaxsiy hayoti va ijtimoiy mas’uliyati bilan bog‘lab o‘rganishning samarasi sifatida izohlash mumkin.

9-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari nuqtayi nazaridan ham modelning amaliy shakllari muhim ahamiyatga ega. O‘smirlik davrida o‘quvchilar tayyor nasihatlardan ko‘ra, mustaqil fikr bildirish, tanlov qilish va o‘z pozitsiyasini himoya qilish imkonini beruvchi faoliyatlarga ko‘proq jalb etiladi. Shu sababli “Jadidlar debati”, rolli o‘yinlar va “Virtual Jadid maktabi” kabi metodlar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirish imkonini berdi.

Modelning “nazariya–amaliyot–loyiha” ketma-ketligi didaktik jihatdan ham izchil bo‘lib, bilimni o‘zlashtirishdan uni amaliy vaziyatda qo‘llash, keyinchalik esa mustaqil mahsulot yaratishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi. Bu jarayonda o‘quvchi nafaqat bilim oladi, balki axborot izlaydi, muammoni aniqlaydi, guruh bilan ishlaydi, qaror qabul qiladi, o‘z faoliyatini baholaydi va natijani taqdim etadi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Tajriba-sinovning faqat ikki maktabda va nisbatan kichik tanlovda o‘tkazilgani natijalarni barcha umumta’lim maktablariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Shuningdek, modelning uzoq muddatli samarasi, ya’ni shakllangan kompetensiyalarning keyingi o‘quv yillarida saqlanish darajasi mazkur tadqiqot doirasida to‘liq o‘rganilmadi. Bundan tashqari, metodikaning samaradorligi

o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va interfaol texnologiyalardan foydalanish mahoratiga ham bog‘liq.

Ilmiy-metodik tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida 9-sinf “Tarbiya” fanini takomillashtirish bo‘yicha bir qator metodik tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Avvalo, darslik va o‘quv-metodik materiallarda Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlaridan o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos parchalarni berish, ularni zamonaviy hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lovchi keyslar bilan boyitish maqsadga muvofiq. Bunda “fikr tarbiyasi – tanqidiy fikrlash”, “muomalat – kommunikativ kompetensiya”, “intizom – o‘z-o‘zini boshqarish”, “shaxsiy namuna – liderlik va ijtimoiy mas’uliyat” kabi mazmuniy bog‘liqliklardan foydalanish mumkin.

Ikkinchidan, pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida jadid pedagogik merosidan zamonaviy darslarda foydalanish metodikasiga bag‘ishlangan maxsus modullarni joriy etish zarur. Bunday modullarda PBL, keys-stadi, debat, rolli o‘yin, refleksiya va portfolio kabi metodlarning amaliy qo‘llanilishi ko‘rsatib berilishi lozim [10; 11].

Uchinchidan, “Meros va zamonaviylik” modelining elektron resurslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur resurs tarkibiga interaktiv keyslar, jadid maktablari tarixiga oid virtual materiallar, Avloniy merosiga bag‘ishlangan viktorinalar, o‘quvchilarning loyiha ishlari va refleksiv topshiriqlarni kiritish mumkin.

To‘rtinchidan, o‘quvchilarning “soft skills” ko‘nikmalarini baholashda faqat yakuniy natijaga emas, balki faoliyat jarayoniga ham e’tibor qaratish lozim. Shu maqsadda rubrikalar, portfolio, o‘z-o‘zini baholash va tengdoshlar baholashi kabi vositalardan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqot yo‘nalishlari

Mazkur tadqiqot kelgusida bir necha yo‘nalishda davom ettirilishi mumkin. Avvalo, “Meros va zamonaviylik” modelining 5–11-sinflar uchun yosh xususiyatlariga moslashtirilgan variantlarini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, “Tarbiya” fanini tarix, adabiyot, informatika, huquq va boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish imkoniyatlarini o‘rganish istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.

Raqamli texnologiyalarni metodik modelga kengroq tatbiq etish, xususan, o‘quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini kuzatishga imkon beruvchi elektron platformalarni yaratish ham dolzarbdir. Bunday platformalarda o‘quvchilarning kompetensiya profili shakllantirilib, ularga individual topshiriqlar va keyslar tavsiya etilishi mumkin.

Bundan tashqari, model samaradorligini aniqlash uchun kengroq tanlov asosida, turli hududlardagi maktablarni qamrab olgan uzoq muddatli bo‘ylama tadqiqotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Kelgusida milliy pedagogik merosga asoslangan kompetensiyaviy ta’lim modellarini boshqa turkiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy o‘rganish ham ilmiy jihatdan muhim natijalar berishi mumkin.

Xulosa. Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoni o'quvchilarga tayyor axloqiy qoidalarni yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, ularni real hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, boshqalar bilan samarali muloqot qiladigan, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his etadigan va raqamli muhitda ongli harakat qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Tadqiqot natijalari Abdulla Avloniy pedagogik merosini zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan integratsiyalash ushbu vazifani amalga oshirishning samarali yo'llaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Avloniyning "fikr tarbiyasi", "muomalat", "intizom", "axloq" va "shaxsiy namuna" haqidagi qarashlari zamonaviy tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, empatiya, o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy mas'uliyat va liderlik kabi ko'nikmalar bilan mazmunan uyg'unlashtirilishi mumkin [2].

Tajriba-sinov jarayonida qo'llanilgan "Meros va zamonaviylik" modeli nazariya, amaliyot va loyihaviy faoliyatni yagona tizimga birlashtirdi. Eksperimental guruhdagi o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, kommunikativ faoliyat, empatiya, jamoaviy ish va o'z-o'zini boshqarish ko'rsatkichlaridagi ijobiy dinamika mazkur yondashuvning amaliy samaradorligini ko'rsatdi.

Modelning muhim jihati shundaki, u milliy pedagogik merosni zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qarama-qarshi qo'ymaydi. Aksincha, Avloniy va boshqa jadidlarning pedagogik g'oyalarini XXI asr kompetensiyalari bilan uyg'unlashtirish orqali milliy qadriyatlar va global ta'lim talablarini bir butun pedagogik tizimda birlashtirish imkonini beradi. Bu esa yosh avlodda milliy o'zlikni anglash bilan bir qatorda, zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan universal ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Abdulla Avloniy pedagogik merosini "Tarbiya" fanining mazmuni va metodikasiga tizimli ravishda integratsiyalash milliy pedagogik an'analarni saqlashning o'zigina emas, balki zamonaviy ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish va ularni murakkab, raqamli hamda tez o'zgaruvchan hayotga tayyorlashning istiqbolli pedagogik yo'nalishi sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
4. Dolimov U. Jadidchilik va jadidlar pedagogikasi. – Toshkent: Sharq, 2012.
5. To'raev B. O'zbek pedagogikasi tarixi. – Toshkent: Fan, 2018.
6. OECD. Skills for a High Performing 21st Century. – Paris, 2020.

7. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? – Paris, 2015.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. Saidova M.A. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari // Ilmiy tadqiqotlar. – 2022. – № 2.
10. Bobonazarov O.A. O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi // Maktab ta'limi. – 2025. – № 12.
11. Saidnazarova G.B. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2024.
12. Ruziyeva M.M. Turkistonda jadidchilik harakatida yangi usul ta'limidagi kasbiy yondashuvlar // Pedagogika. – 2025. – № 1.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694